

ABULG'OZI BAHODIRXONNING "'SHAJARAI TURK" ASARIDA URUG' VA QABILA NOMLARINING IFODALANISHI

Axmadjonova Mohlaroyim

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abulg'oziy Bahodirxonning tarixiy asari bo'lgan "Shajarai turk" asarining o'ziga xosligi ochib beriladi. Asarda afsona va dalillashlar orqali keltirilgan urug' va qabila nomlarining kelib chiqish tarixi ilmiy-badiiy tarzda tahlil qilinadi. Qadim urug' va qabilalarga xos an'ana va udumlar xususida ham so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Urug', qabila, shajara, qarluq, qipchoq, o'g'uz, mo'g'ul, uyg'ur, Dashti qipchoq, O'g'uzxon, Kunxon, Arkanaqun, birodarlik, budparastlik, Qiyot, Jaloyir, Alanquva.*

XVII asrning yirik davlat arbobi va tarixchisi bo'lgan Abulg'o'zixon o'zining "Shajarai turk" asari orqali turkiy xalqlarning kelib chiqishi, siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli manbalarni yaratdi. Abulg'ozixon "Shajarai turk" asarining yozilish sababini quyidagicha izohlaydi: "Ammo bizning ota va aqalarimizning beparvoligi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridan to bizg'a kelguncha tarixlarini bitmay erdilar... Ul sababdin o'zimiz aytduk". Abulg'ozixon bu asari orqali Odam Atodan to o'zigacha bo'lgan barcha shajarani sanab, voqealari bilan izohlab beradi.

"Tarix hijriy ming taqi yetmish to'rt erdi kim, biz bu kitobni ibtido qilduk va taqi "Shajarai turk" deb ot qo'yduk. Taqi to'qqiz bob qilduk". Asarning birinchi bobi Odam yaratilishidan boshllanadi va uning avlodlari ketma-ket izohlanadi (Odam, Shis, Anush, Kinyon, Mahloyil, Barad, Axnux, Matushlax, Lamax, Nuh, Yofas, Turk, To'tak, Ablachaxon, Debboquy, Kuyukxon, Alanchaxon, Mo'gulxon, Qoraxon, Og'uzxon). Muallifning mahorati shundaki, har bir avlod almashgach, ular izohlanadi, yashagan vaqti aniq beriladi, ma'lum voqealar qiziq va tushunarli bayon qilinadi.

Shunday voqelarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: Farishtalarning yerdan tuproq ololmay qaytishi, tuzloq yerda tuz kashf qilinishi, yer yuzini suvga g'arq bo'lishi va bor yo'g'i Nuh alayhissallom, uch o'g'li va uch kelini tirik qolib yer yuziga yoyilishlari, O'guzxon onasini emmay qo'yishi, bir yashar og'lon tilga kirib, o'z ismini aytishi, musulmon qizni xohlashi, O'g'uzxon harbiy safarida urug', qabilalar nomini qo'yishi, oltin yoy va uch o'q voqealari, Alanquvaning nurdan o'g'il ko'rishi, Temuchinning bir qo'lida qon mushtlagan holda tug'ilishi va h.k.

Asarda urug' va qabila nomlarining kelib chiqishidagi voqealar, ko'p o'rinda, O'g'uzxonning harbiy yurishlari bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilar o'ziga xos sabablar bilan izohlanadi.

Qarluq - O'g'uzxon G'uru viloyati ustiga yurganda, G'uruning to'g'lariga qor ko'p yog'gan edi. Lashkar o'tishga qiynaldi, amallab G'uruni olishdi. Bir guruh lashkar kam

chiqdi, ularni qidirishdi, hech kim bilmadi. Bir necha kun o'tib ular yetib kelishdi va aytishdiki, ular qo'shin oxirida kelayotganida tog' ichida qoralar orasida qolib ketishibdi. Bahor kelgach piyoda kela boshlashibdi. O'g'uzxon "Ul jamoatg'a Qorliq tesunlar" deb hukm qiladi. Barcha Qarluq eli o'shalarining nasli hisoblanadi.

Uyg'ur - Qoraxon o'g'li O'g'uzxonning musulmon ekanligini bilib qolib, unga qarshi urush e'lon qiladi. Shunda O'g'uzxon meni deganlar menga keling, otamni deganlar otamga boring deb, urushga rozi bo'ladi. Qoraxon inilarining barcha o'g'illari O'g'uzxon tomonga o'tishadi. Xon ularga Uyg'ur nomini beradi. Bu so'z turkiy tilda "yopishg'ur" ma'nosini bildiradi. Ular kelib O'g'uzxonning etagiga ikki qo'llari bilan yopishganlari uchun shu nomni oladilar.

Qang'li - Tatarni olishganda ko'p o'ljaga ega bo'lishdi. Ularni olib ketish uchun bir kishi arava yasadi. Mollarni yuklab ketishayotganda aravadan qaniq-qaniq degan g'ildiraklar ovozi chiqib boshladi. Uni yasagan kishini qaniqli dedilar. Barcha Qaniqli el ana shu kishi avlodlaridir.

Qipchoq - Baroqxon bilan jangda O'g'uzxonning barcha lashkar--u beklari ikki daryo orasiga kelib qoldilar. Ularning odatiga ko'ra, uzoq safarga otlanganlarida bor ko'chlarini ham olib borar edilar. Shu vaqt jangda o'lgan bir bekning xotini homilador edi. To'g'oq tutib, kirishga joy yo'q, bir chirigan daraxt(yog'och)ning ichida bir o'g'il tug'di. Xon bolaning otini Qipchoq qo'ydi. Qadim turk tilida qipchoq so'zi "ichi bo'sh yog'och" deganidir.

Xalaj - O'g'uzxon qo'shin oxirida qolib, adashib qolganlarni keltirishni buyurdi. Bir kishini keltirdilar. U aytdiki, onasi ochligidan suti yo'q, shundan bolasi ham och edi, qirg'ovul tutib xotiniga kabob qilibdi, shunga qolib ketishibdi. Xon unga biz bilan borma shu yerda qo'l, "Qol, och" deydi. Shundan Xalaj ahli tarqaydi.

Uyrat - Bir necha daryolarning ajralish nuqtasida joylashgan qabila. Ma'nosi "ayrilish" degani. Turg'avut, Qo'ri, To'los urug'larining ham asli Uyrat hisoblanadi.

O'rmanqit - Bu urug' vakillari qalin o'rmon ichida yashashga uchun shunday nom olganlar.

Do'rman - Mo'gulxon o'g'li Bichinqayonning besh o'g'li bor bo'lib, otasi eng kichigini voris tayinlab olamdan o'tdi. Lekin qolgan to'rt o'g'il bundan norozi bo'lib, yurtlaridan chiqib ketishdi va boshqa joyda el bo'lishdi. Mo'gul tilida "to'rt" so'zi do'rman degani. O'sha yigitlarga do'rmanlar deb nom qo'yishdi.

Bundan tashqari, asarda urf-odat, an'ana sifatida qabul qilingan turkiylarga xos qarashlar ham maqol, matal, hikmat tarzida aks etganini ko'rishimiz mumkin :

"It semirsa, egasini qopar" masali Alanchaxon davridagi yurt ahvoli haqida, "O'ksuz o'z kindigin o'zi kesar" masali esa asar yozilish sababiga bog'lanadi. "El boshsiz bo'lmas, bosh toshsiz bo'lmas", "Yomon otadan yaxshi bola tug'ilur", "Elga yomon bo'lgan, elidan ayrilar" kabi maqol, matallar ham o'rin olgan. Ulug' podshohlarning bir odati haqida ham gap boradi, ya'ni ular uzoq safarga borganda ko'chlarini olib borardilar. Turk xalqi har narsani to'qqiz qilish odati borligi(masalan, to'qqiz ming qo'y, to'qqiz hovuz, to'qson

qimiz), Taxtga bir shahzoda ega chiqqach qolganlari oddiy xalqqa qo'shilib ketish odati faqat turkiylarga xos va asarda o'ziga mos tarzda izohlangan.

Xulosa qilib aytganda, asar turkiy xalqlar tarixini aniq ma'lumotlar bilan o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, urug', qabila nomlarining kelib chiqishi bog'liq qarashlar tarixiy manbalarga asoslangan. Qadim urug'larga xos urf-odat, an'ana, xalq og'zaki ijodidan ham namunalar asosli ravishda keltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. Toshkent: Cho'lpon - 1992.
2. Xudoynazarov. H. Abulg'oziy Bahodirxon tarixchi va adib. T:O'zbekiston -1994.
3. Qurbanboyeva S.M. Abulg'oziy Bahodirxon ilmiy faoliyatining o'rganilishi.
4. Begmatov E. Mustaqillik va toponimiya. O'zbek tili va adabiyoti-2009, 5-son, 9-12-b.
5. Abulg'oziy. Shajarayi tarokima. T.: 1995.3 .O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.4
6. Xudoyberdiev H. Abulg'oziy. T.: 2004.6.I.
7. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2009